



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS**  
**OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 7-uy. Tel.: (998) 55-520-08-08, e-mail: devonxona@edu.uz, edu@exat.uz, veb-sayt: www.edu.uz



2024-yil 30-oktabr

03/12-4/1-954

**Oliy ta'lif muassasalari  
rektorlari (direktorlari)ga**

*TIVning 22.10.2024 dagi 20-156/15972-son xatiga asosan*

Xalqaro ta'lif bo'yicha "Amerika kengashlarining" (ACIE) O'zbekistondagi filiali tomonidan AQSh elchixonasi bilan hamkorlikda respublikada amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan bir qator ta'lif dasturlari va loyihalari to'g'risidagi maktubi nusxalari kelib tushdi (ilova qilinmoqda).

**1. "IT Summer Camp" loyihasi.** 2024 yilning oktyabr oyida ishga tushirildi va AQShning Toshkentdag'i elchixonasi tomonidan moliyalashtiriladi. Loyiha muddati – 1.5 yil, byudjeti – 433 ming AQSh dollar'i. Uning doirasida 2025 yil yozida O'zbekistonining 6 ta shahrida 300 nafar talabalar uchun yozgi oromgohlar tashkil etiladi hamda ularda ingliz tili, IT sohalari va liderlik sifatlarini oshirishga qaratilgan darslar olib boriladi.

**2. "US Government Alumni Grants and Conferences Program" dasturi.** 2024 yilning oktyabr oyida ishga tushirilishi va AQShning Toshkentdag'i elchixonasi tomonidan moliyalashtirilishi ko'zda tutilmoqda. Loyiha muddati – 1 yil, byudjeti – 300 ming AQSh dollar'i. Loyiha 11 ming nafar AQSh almashinuv dasturlari bitiruvchilari ishtirokida turli uchrashuv, konferentsiya va seminarlar tashkil etish hamda ularga ikki mamlakat o'rtaсидаги hamkorlikni kengaytirish bo'yicha o'z bilim va tajribalari bilan bo'lishish imkoniyatlarini taqdim etadi.

**3. "English Speaking Nation: Teacher Leadership Training (ESN:TLT)" dasturi.** AQShning O'zbekistondagi elchixonasi tomonidan moliyalashtiriladigan mazkur dastur 2019-2024 yillarda O'zbekistonda amalga oshirilgan "English Speaking Nation: Secondary Teacher Training" dasturi ishtirokchilari (18 ming nafar ingliz tili o'qituvchilari malakasi oshirilgan) va boshqa almashinuv dasturlari qatnashchilari bo'lgan ingliz tili o'qituvchilarining professional bilim va salohiyatini oshirishga qaratiladi. Uning doirasida 1,1 ming nafar o'qituvchilar uchun "TESOL"

xalqaro assotsiatsiyasi bilan hamkorlikda treninglar tashkil etiladi. Loyiha muddati – 1.5 yil, byudjeti – 500 ming AQSh dollarari.

**Ma'lumot uchun:** ACIE yuqoridagi dastur va loyihalarini tegishli vazirlik va idoralar bilan yaqin hamkorlikda ishlab chiqish, qo'shimcha ma'lumotlarni doimiy taqdim etib borish va o'rnatilgan tartib-qoidalarga asosan amalga oshirishga tayyorligini bildirmoqda.

Yuqoridagilarni, shuningdek, ACIE tomonidan AQSh elchixonasi moliyaviy ko'magida amalga oshirilishi kutilayotgan loyihalar mahalliy ta'lim tizimini qo'llab-quvvatlashga qaratilganini inobatga olib, Vazirlik ularni amalga oshirishni mumkin deb hisoblaydi. Shu o'rinda, Vazirlik barcha qayd etilgan loyihalarini manfaatdor vazirlik va idoralar muvofiqlashtiruvi ostida olib borish hamda natijalari yuzasidan Vazirlik va mutasaddi idoralarni xabardor qilib borishni maqsadga muvofiq deb biladi.

Ilova: 10 bet

Vazir o'rinnbosari



S.Buzrukxonov